

TERMIZ SHAHRIDA NAVBATDAGI SAYYOR QABUL O'TKAZILDI



TERMIZ SHAHRIDA NAVBATDAGI SAYYOR QABUL O'TKAZILDI

Bugun, 31-mart kuni Termiz shahar hokimi Isroil Xudayberdiev va shahar Xalq qabulxonasi mudiri O.Saodatov hamda mutasaddi tashkilotlar birgalikda fuqarolar uchun navbatdagi sayyor qabul o'tkazdi.

Qabul davomida imkoniyati cheklangan 2-nafar fuqaroga sog'ligini tiklashi uchun bir martalik moddiy yordam berilishi, imtiyozli kredit masalasidagi murojaatlar tegishli tartibda mahalladagi hokim yordamchisi orqali amaliy yordam ko'rsatiladigan bo'ldi. Shuningdek, imtiyozli uy-joy olish uchun subsidiya ajratish masalasi yuzasidan murojaatchilarga huquqiy tushuntirishlar berildi.

Qo'shimcha o'rganish talab etiladigan qolgan murojaatlar nazoratga olinib, ijrosi bo'yicha tegishli mas'ullarga muddat belgilandi.







Image not found or type unknown

